

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILA HAQIDAGI QARASHLARI

Kozimjonova Mushtariy Isaqjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti,
Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish,
ma'naviyat mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada oila haqida sharq mutafakkirlarining fikrlari va qarashlari, asarlari bo'yicha mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Sharq mutafakkirlari, oila, farzand, tarbiya, tan va ruh pokligi, axloqiylik

Annotation: The article discusses the thoughts, views, and works of eastern thinkers about the family.

Key words: Eastern thinkers, family, children, education, purity of body and soul, morality

Аннотация: В статье рассматриваются мысли и произведения восточных мыслителей о семье

Ключевые слова: восточные мыслители, семья, воспитание чистота тела и души, нравственность

Sharq mutafakkirlari o'z ilmiy meroslarida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar: Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida oilada farzand tarbiyasi masalalari o'rtaga qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Sharqda oilalarning mustahkam bo'lishiga tarixan jiddiy va katta e'tibor berilgan: oila qurishda ikki tomonning roziligi, nasl-nasabi, din-u diyonati, mol-dunyosi va husni inobatga olingan; oila oyoqqa turguncha ota-ona, yaqin

qarindoshlar o'z ko'mak va maslahatlarini ayamaganlar; oilada farzandni komil tarbiya qilish uchun 3 narsaga asosiy diqqat qaratilgan:

- yaxshi ism qo'yish va sog'lom o'stirish;
- sog'lom fikr va mushohadali etib tarbiyalash;
- axloq va mehnat tarbiyasini o'rgatish;

Oilalarning mustahkam bo'lishida ota-ona, qo'ni-qo'shni va qarindosh-urug' ibrati muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, qush uyasida ko'rganini qiladi.

Imom al-Buxoriy bir o'rinda ota-ona farzandiga zulm qilsa ham farzandlari ularga yaxshilik qilaverishlari kerak, deb ta'kidlasa, boshqa bir o'rinda "Qaysi bir musulmon farzand savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Olloh taolo unga jannatning ikkita eshigini ochadi. Oila va oilada bola tarbiyasi juda muhim. "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini yaxshilangiz."'¹

"Bolalaringizni suzishga va o'q otishga o'rgatinglar, qiz farzandlaringiz uyda tikish-bichish ishlari bilan shug'ullangani yaxshi"

"Agar ota-ona birdaniga chaqirib qolishsa, avval onaga javob qil, ota-onasi qarg'aganni tangri qarg'aydi".

"Kimning go'dagi yosh bo'lsa, uni go'daklarcha qiliq qilib erkalatsin."

"Hech bir ota-ona o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi", degan fikrlarni ilgari surgan.

Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning oila va oilada bola tarbiyasi o'rtasidagi "Ota ona va farzand burchi", "Ota-onani, oilani va qarindoshlarni hurmatlash" va hokazo kabi nodir hadislar bizgacha yetib kelgan.

At-Termiziy ham "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar, yoki ota-onalaringizga qanday yaxshi muomalada bo'lsangiz, farzandlaringiz ham sizga shunday muomalada bo'ladi"² kabi hadislar bilan hadis ilmining rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan siymolardan biri hisoblanadi.

¹ "Sahihi Buxoriy" Imom Al Buxoriy. "Toshkent". 1992. 23-iyul. B. 206.

² "Sahihi Termiziy" Imom At-Termiziy. "Toshkent". 2017.15-fevral. B. 167.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, “Ota-onalar ikki xil: tug‘ilish otasi va ta’lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli”. Shunga ko‘ra, ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so‘zlari anchayin ibratlidir: “Zamondan yaxshiroq ta’lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq talim oladigan o‘quvchini ko‘rmadim”³. Uning bu so‘zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta’sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta’lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o‘rtaga tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartiblilik mavjud ekan, u yerda ma’naviy poklik ham bo‘ladi. Bu fikrni, tanani toza tutish bilangina cheklab bo‘lmaydi, balki ko‘p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi to‘g‘risidagi g‘oya bilan bog‘liqdir. Bu narsa bola tarbiyasi jismoniy sog‘lomlik bilan ma’naviy-axloqiy boylik o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir. Beruniy ota-onalarga qarata bolani mo‘tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan, bolani qattiq g‘azablanishdan, qo‘rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Beruniy bola tarbiyasida irsiyat muhit va tarbiya ta’sirini birdek muhim ekanligini ta’kidlab o‘tgan edi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. “Axloqiylik yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi va shakllanadi.”⁴ Uning bu fikri o‘z davri uchun yangi va ilmiy bashorat edi. Bola, asosan, oilada tarbiyalanadi. Oila o‘z muhiti orqali bolaning dunyoqarashiga va xulqiga doimo o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi.

Ibn Sino ta’biricha, ota-ona bola tarbiyasini unga ism qo‘yishdek oliyjanob vazifadan boshlaydi. ⁵Abu Ali ibn Sinoning oilaviy munosabatlar haqida

³ H.Xorazmiy “Muhabbatnoma” “Yosh kuch” 2014.11-oktyabr. B. 131

⁴ “E’tiqodlar va dinlar haqida”. “Zabarjad” 2018.26-noyabr. B.43

⁵ “Maktabgacha pedagogika” F.Qodirova, Sh Toshpo‘latova, N,Kayumova, M A‘zamova 2018.22-iyul. Arxiv.uz

aytgan fikrlari bag'oyat qimmatlidir. Olim "Tadbir-al-manozil" asarida oilada er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o'tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib uning kelajak taqdirini belgilashda muhimligini alohida ta'kidlaydi. Ibn Sinoning fikricha, tarbiyachi faqat so'zdagina nasihatgo'ylik bilan tarbiyalamasdan, balki amalda ham bolalarga o'z xulqi bilan ta'sir qilishi kerak. U ota-onaning bolalar bilan olib boriladigan suhbatining sharti to'g'risida mulohaza yuritib: "Siz gaplashish, fikr olishda xayrixohlik talablariga rioya qilgan holda ish ko'rsangiz, yo'ldan adashmaysiz va to'siqlarga duch kelmaysiz". "Bolada yaxshi xarakter va xulq-atvor tarbiyalash uchun uning shaxsini hurmat qilish kerak, uni sevish va e'zozlash lozim. Uning oldida yomongapirmaslik, ortiqcha harakatlar qilmaslik kerak, lekin tarbiyada talabchanlik bo'lishi lozim",⁶ degan g'oyani ilgari suradi.

A.Avloniy esa bu sohada birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida qayg'urish lozimligini ta'kidlaydi. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilan bo'lsa, tarbiya esa amaliy ish va tajriba vositasida amalga oshirilishi bilan tarkib topishini alohida ta'kidlab o'tganlar.⁷

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ayolning oila turmushdagi hissasiga va shaxsiy namunasiga quyidagicha to'xtaladi: "Yaxshi rafiq – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa – ko'ngul yozig'i, xushmuomala bo'lsa – jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi

Yuqorida bildirilgan fikrlardan ma'lumki, ayol oila turmushida erning haqiqiy sodiq yo'ldoshi, bola tarbiyasida yaxshi va yomon sifatlarining tarbiyaviy ta'siri beqiyosligi o'ziga xos tarzda ifodalangan. Ayniqsa qizlar tarbiyasidan onalar yaxshi sifatlarining namunasi va yomon sifatarning natijalari oilaga musibat keltirishi pedagogik asoslangan.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "...Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? Degan savol keladur. Bu savolga, birinchi uy tarbiyasi.

⁶ "Tadbir al-manozil" Ibn Sino. 1994.10-avgust. "O'zbekiston" B. 192

⁷ "Turkiy Guliston yoxud axloq" A.Avloniy."Toshkent" 2004.10-dekabr. B. 67

Bu ona vazifasidir. Bir kishi deyurki, qaysi onalarni aytursuz, bilimsiz boshi paqmoq, qo‘li to‘qmoq onalarnimi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qaydan olib berurlar” der. Mana bu so‘z kishini yuragini ezar, bag‘rini yondurar. Otasiga nima dersiz, desak, “Qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zlari qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o‘zlarini o‘qitmoq, tarbiya qilmoq lozimdur”, - der. Mana bu so‘zni eshitgach umid qo‘llari qo‘ltiqqa urilur.

Abdurauf Fitrat aytganidek, avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo‘lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo‘ynimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo‘ladi. Kimki, badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo‘ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo‘ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo‘lgan farzand, xushaxloq iymon sohibi bo‘lgan ota-onalardan bo‘ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo‘lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o‘sgan farzand ham badaxloq bo‘ladi”,⁸— deya bola tarbiyasida ota-onalarning namuna bo‘lishi haqida qimmatli fikrni ilgari surgan.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug‘ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyligi, ruhi, intellektual vaaxloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma’lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o‘z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo‘ladi,⁹ deb ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ta’lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqeyi, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma’noda insonparvarlik va insonshunoslik zahirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg‘unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta’kidlaydi.

⁸ “Oila” A. Fitrat. 2016.15-may. “Toshkent” B.47

⁹ “Fozil odamlar shahri” Abu Nasr Forobiy. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2023. B. 32.

Jadidchilarimiz xonadonlardagi kelishmovchiliklarning asosiy sababi: “axloqiy fazilat va islomiy tarbiyadan mahrum bo‘lganimiz”, – deb aytib o‘tgan. Bu fazilatlarni o‘zimizda shakllantirishimiz lozim. Oilalarda o‘ziga xos ma’naviy ma’rifiy muhit shakllantirilib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni mana shunaqa ma’naviy ruhda kamol toptirsak, millatimiz kelajagi uchun buyuk poydevor shakllantirgan bo‘lamiz. Turmush tashvishlarida er ham, xotin ham hamjihatlikda harakat qilishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi, albatta. Zero, xalqimizda “Er-xotin qo‘sh hokiz” degan naql bor. “Dunyoning ba’zi bir ishlarini ahlu ayol bajarsa, ba’zilarini erkak o‘z zimmasiga oladi. Shuning uchun u ko‘chaga chiqadi, kasb o‘rganadi, odamlar bilan muomalaga kirishadi. Ko‘chada bajariladigan ishlarni erkak o‘zi qiladi. Bir qism ishlar va majburiyatlar, uy ishlari (oziq-ovqat sarfi va iqtisodi, bolalarni boqish va tarbiyalash) ayol bo‘yniga tushadi. Shu muqaddimadan ma’lim bo‘ladiki, erkak dunyoviy ishlarni bir qismini bajarishga qanchalik mas’ul bo‘lsa, ayol ham bir qism ishlarni bajarishi shunchalik zarur ekan. Boshqacha qilib aytganda, dunyoviy ishlarni bajarishda erkak va ayol o‘talarida, umuman, farq bo‘lmaydi” Oilaning moddiy manaatlari erga yuklangan bo‘lsa, ma’naviy jihati ko‘proq ayol zimmasida qoladi. Oila mustahkamligining birdan bir ustuni, tayanchi farzand. Farzand tarbiyasida ayollarimizning o‘rni beqiyos. Bola tarbiyasi juda ham katta mas’uliyat talab qildigan jarayon hisoblanadi. Unda sustkashlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, ayniqsa bugungi ijtimoiy taraqqiyot davrida. Kerakli o‘rinlarda rag‘batlantirish ya’ni bolaga o‘z “baxtini” his qildirish kerak, xato ish qilganida esa to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish lozim. “O‘ziga taalluqli bo‘lgan ishlar natijasida odam yo mamnun bo‘ladi, yo g‘amgin. Shu mamnuniyatni “baxt” va g‘amginlikni “alam” deydilar. Kishi qaysi ish natijasidan mamnun bo‘lsa, baxt ko‘rgan bo‘ladi va shu ishni qayta takrorlanishini istaydi. Ana shu istak “baxtga mayli” bo‘ladi. Baxtli bo‘lishga har kimning ham haqi va mayli bor. Qaysi ishni boshlasak, sababi shu mamnunlik mayli bo‘ladi Bolalarni shunday tarbiya etish lozimki, baxtga bo‘lgan intilishlari hech qachon hazon bo‘lmasin, so‘nmasin, balki ko‘karsin. Ota-ona bolaga mamnunlik va xursandchilik qilishni man etmasliklari, balki axloqqa zid

bo'lmagan ishlar bilan mamnun va xursand bo'lishini qo'llab-quvvatlashlari kerak. Boladan biror yaxshi ish sodir bo'lsa uni maqtashlari, maqtab mukofot berishlari yaxshi. Farzand ham ishning natijasini ko'rib shunday baxli va mamnunlik ishlarni orzu qiladi. Agarda farzand yomon ish qilsa, shu qilmishning qabohati va alamini unga tushuntirish lozim, toki u, bu ishdan nafratlab o'zini keyingi safar tiysin”

Abdurauf Fitratning “Oila” asari ham oila uchun muhim dastur-ul-amal bo'lib xizmat qilishi mumkin. Oila» asarida oilaviy xayotning islohotidan bahs yuritilib, adib najot yo'llarini axtaradi. Fitratning oilaga nisbatan qarashlari zaminini Qur'onda shu masala bo'yicha olg'a surilgan fikr va g'oyalar tashkil etadi. Shuning uchun xam bu kitob o'z vaqtida taraqqiyparvar yoshlar tomonidan samimiy qarshi olingan.¹⁰ Oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini tarqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas. Oxir oqibatda millat taqdiri uning oilasining xolatiga bog'liq. Bu g'oya Fitrat asarida o'z ifodasini topgan: “Xar bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik anashu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat xam shuncha kuchli va muazzam bo'ladi.”

Oila, Fitratning talqinida, uch muhim komponentdan iborat :

1)Er.

2)Xotin.

3)Farzandlar.

Anashu uch komponentning xar biri nozik, spesefik jihatlarga ega. Chunki, er va xotin uchun oila qurish asosiy muammo bo'lishi bilan birga, bu masala o'zining muxim qirralariga xam ega. Fitrat oilaning xuquqiy asoslarini yoritib, berishdan avval, masalaning g'oyat muhim tomonlarini xam yodda saqlaydi.¹¹ Hayotning farzandlar shaklida davom etishi, Fitrat nazarida, faqat oila emas, balki millatning xam kuch-qudratini, sha'n-shavkatini bildiruvchi omildir: “Masalan, Belgiyaliklar va inglizlarni olib ko'raylik, xar ikkala millat a'zolari ishchan va

¹⁰ “Oila: Fitratning madaniy fikr nazariyasi” Sh. Rahimov. 2017.12-may. Arxiv.uz

¹¹“Oila”Abdurauf Fitrat. 2016.15-may. “Toshkent” B. 84

xarakatchandir. Lekin ko‘z oldimizga ularni keltirib, muxokama qilsak, ko‘ramizki, ingliz millati belgiya xalqidan yuz barobar ko‘proq kuch va shavkati e‘tiborga egadir. Qizig‘i shundaki, ingliz va belgiyalik millatlar o‘rtasida ilmu-amal va sa’y xarakatda farq yo‘q. Unda shavkatu shon va izzat bobida shuncha farq qaerdan? Bu savolning javobini xar ikkala millatning umumiy sonidan topsa bo‘ladi, ya’ni ingliz milatining axolisi 44 ming, belgiyaliklar esa 7,5 mingga yetadi. Shuning uchun xam ingliz millatining umumiy sa’y-xarakati va amali belgiyalikning sa’y-xarakati va amalidan bir necha marotaba unumlidir. Ingliz millatining kuchi va izzati, e‘tibori xam ana shu sa’y va amallarinning natijasidir. Shundan kelib chiqib, Ovropa xukmdorlari o‘z millatlarining sonini ko‘paytirishga xarakat qiladilar. Ovropa olimi o‘z xalqining nufuziga putur yetsa,; “Ey! Mamlakatimizning sharafi va e‘tibori qolmayapti, Millatimiz nest-nobud bo‘ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun farzand yetishtiringiz,”- deya dod soladi”¹².

Ko‘ramizki, oila va farzand masalasi erkak yo ayolning xususiy masalasi emas. Farzand nafaqat ota-ona xayotining davomi balki ayni paytda millatning xam, iqtidori, obro‘ va e‘tiborini belgilaydigan zanjir xalqasidir. Millat esa vatan, mamlakatning yuragi, demak, millat son jihatidan qanchalik ko‘p bo‘lsa u yashayotgan vatanining xam kuch-kudrati shu qadar ziyod bo‘lishi tabiiy. Oila masalasi:

- 1) Millat
- 2) Mamlakat
- 3) Kishilik jamiyati

degan uchlikni ta'minlab turuvchi muxim bir xalqadir.

Fitrat talqinida son, miqdor sifat degani emas,¹³ xalqning soni ko‘p bo‘lishi, ammo uni tashkil etuvchi kishilar ishyoqmas, tebsa-tabranmas kishilar xam bo‘lishi mumkin.

O‘z saodati, kelajagi, yaxshi yashashi, osuda xayot egasi bo‘lishlik o‘sha millat kishisining xarakatchanligiga xam bog‘liqligini aytadi.” Qaysi millatning

¹² “Oila” Abdurauf Fitrat 2016.15-may.”Toshkent” B.86

¹³“Oila: Fitratning madaniy fikriy nazariyasi” Sh. Rahimov. 2017.12-may. Arxiv.uz

nomoyondalari g'ayratli, shijoatli bo'lsalar, qo'l oyog'i kuchli va chaqqon, xamma a'zolari sog' va faol izzat va e'tibor soxibi bo'ladilar" deya ta'kidlab o'tadi. Fitrat millatning sifati uning miqdori bilan xam bog'liq tomonlarini anglatgan. Buning uchun qayg'urgan xam. Oilada millatning qadri va sha'nini belgilovchi xarakatlar, avvalo er va xotinning iffat, diyonati bilan bog'liq ekanini xayotiy misollar bilan anglatadi. Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlari, milliy o'zlikni anglash haqidagi g'oyalari asosan o'zining "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" nomli asarida berilgan. Ushbu asar 1914 yilda yozilgan. "Oila" asari o'sha davr shiddatini o'zida mujassamlashtirgan asar hisoblanadi. U o'zgacha bir shiddatli uslub bilan yozilgan. Sababi, o'sha davr shiddati qaysidir ma'noda badiiy asarlarga ham ko'chgandi. "Oila" asarida ham tanqidiy ruh, ham da'vat ruhi kuchli. Fitrat ona Turkistonni ozod ko'rishni istaydi, buning uchun har bir turkistonlik oila, axloq, a'mol va erk o'chog'i bo'lmog'i lozim. Mufakkir yangi oilani ana shu tartibda qurishga da'vat etadi. Har jihatdan sog'lom bo'lgan oila yetishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko'tara olishini, uni istibdoddan qutqarishini aytadi: "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor..." , - deydi alam bilan Fitrat.

Darhaqiqat, davlatimiz kelajagi ham, rivojlangan mamlakatlar orasida tutgan mavqei va salohiyati ham, dunyoqarashi, bilimi, aql-zakovati, Vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas'uliyatini teran anglashi, bugungi avlodga bog'liqdir. Zero bilim va kasb-hunarga qiziqish, ota-onaga xurmat, do'stga sadoqat, mehr-shafqat, halollik va poklik kabi axloqiy fazilatlar oilada shakllanadi va sayqal topadi.

Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asari oilaning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, oilada amal qilinadigan ichki tartib va qoidalarga bag'ishlangan. Ayniqsa, asarning "Uylanish yoki uylanmaslik xususida", "Qalin (puli) va to'y qanday bo'lishi lozimligi haqida", "Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida", "Oilaning maishati va idorasi" qismlarida bu masalalar xususida atroflicha fikr yuritilgan. Abdurauf Fitrat ushbu asarida har bir

yangi oila uchun qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin bo'lgan masalalarni yoritadi. U vatanparvarlik va millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, kitobning birinchi qismiga, ma'lum ma'noda me'yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi.

Undan har bir yangi oila qurmoqchi bo'lgan turkistonlik kichik hajmdagi axloqiy-maishiy, gigienik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin edi. Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo'lgan holatlarning axloqiy asoslari to'g'risida ham to'xtalib o'tadi. Bu jihatlarni o'sha davr nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak juda ijobiy jihat hisoblanadi. Chunki, bu davrda Turkistonda xali medisina unchalik rivojlanmagan, kishilarning turmush madaniyati ham u qadar yuqori emas edi. Fitrat ko'plab xorijiy davlatlarda bo'lganligi sababli, u yerdagi ijobiy, o'rganish zarur bo'lgan, turmush tarziga oid juda ko'p tajriba orttirgan edi.¹⁴

Er-xotin va farzandlardan iborat, bir shaxs boshchiligida, birga yashovchilar, Fitratning fikricha, oilani tashkil etadi. Asarda har bir oila manfaatini ximoya qilish maqsadida turli qonunlar ishlab chiqilgani, ular «manzil tadbir» (ro'zg'or tebratish tadbiri) deb atalgani ta'kidlanadi. Shu ma'noda, muayyan mamlakat aholisi axloqsizlik oqibatida oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l bersa, shu millatning saodati ham, hayoti ham shubha ostida qoladi.

Xulosa qilib aytganda sharq mutafakkirlari asarlarida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida talqin etiladi. Ular uchun oila – axloqiy tarbiyaning insoniy fazilatlarning shakllanish maskani, jamiyat taraqqiyotining poydevoridir. Umuman olganda sharq mutafakkirlarining oila haqidai qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, oilaviy qadriyatlarni asrab avaylashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

¹⁴Abdurauf Fitratning "oila" asaridagi ma'naviy-axloqiy qarashlari " P. Saidova. 2016.18-aprel. Arxiv.uz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Imom Buxoriy “Sahihi Buxoriy” 1992. 23-iyul
2. Imom Termiziy “ Sahihi Termiziy” 2017. 23-iyul
3. Abdurauf Fitrat “Oila” 2016. 28-dekabr
4. Abu Ali Ibn Sino “ Tadbir al-manozil” 1994. 10-avgust
5. Abdulla Avloniy “ Turkiy Guliston yoxud axloq” 2004. 14-dekabr
6. P. Saidova “ Abdurauf Fitratning Oila asaridagi ma’naviy axloqiy qarashlar”
2016. 18-aprel
7. Sh Rahimov “Oila. Fitratning fikriy madaniy nazariyasi” 2017. 12-may
8. H. Xorazmiy “ Muxabbatnoma” 2014. 11-oktyabr
9. Abu Rayhon Beruniy “ Etiqodlar va dinlar haqida” 2018. 26-noyabr
10. Abu Nasr Forobiy “ Fozil odamlar shahri” 2023.